

INNOVATSION TA'LIMNING MAZMUN VA MOHIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17204646>

Xasanov Tursunali Xaydarali o'g'li

t.xasanov1993@gmail.com

+998 93 649-45-51

Annotatsiya

ushbu maqolada pedagogik jarayonning eskirib qolgan texnologiyasini yangisiga almashtirish, qurilish sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, Innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi, "Innovatsion ta'lim" tushunchasi hamda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar

fan, texnika, innovatsiya, ta'lim, innovatsion ta'lim, interfaol ta'lim, zamonaviy texnologiyalar.

Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomondan, fan - texnika yangi soha va bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiyallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish prinsipiga alohida e'tibor berilgan[2]. Pedagogik jarayonning eskirib qolgan texnologiyasini yangisiga almashtirish, zamonaviy davr talablari asosida yondashish, darsga esa yangicha usullarning loyihasini qo'llash asosiy vazifa bo'lib qoldi. Shuningdek, ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga, darslarni o'qitishning faol usullarini qo'llab tashkil etish muammolarining echimiga qo'yilgan talab tobora ortib bormoqda.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, qurilish sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, qurilishning barcha bosqichlarida shaffoflikni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni imzolandi[1].

Hozirgi vaqtda zamonaviy texnologiyalarning jadal joriy etilishi tufayli o'qitishning yangi usullari doimiy ravishda ishlab chiqilmoqda. Innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi talabalar uchun o'rganilayotgan fanlarni maksimal darajada rivojlantirishga qaratilgan o'qitish usullarini qurishda doimiy ravishda yangi yondashuvlarni talab qiladi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda.

Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("innovation") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. "Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi[3.B.10].

Innovatsiya - muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat.

"O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: "Innovatsiya (ingl. "innovation" - kiritilgan yangilik, ixtiro) - 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarda qo'llanishi[4].

A.I.Prigojinning fikriga ko'ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yonndashish, bu munosabatni bir qadar turg'un elementlar bilan boytib borish tushunilishi lozim. Bu o'rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs, fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o'ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi.

Bundan tashqari, Amerikalik psixolog E.Rodjers o'z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o'rgangan.

"Innovatsiya" so'zining ma'nolaridan kelib chiqqan holda innovatsion ta'lim va ta'lim innovatsiyalari haqidagi tushunchalarga ham e'tiborimizni qaratsak.

"Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979-yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan. Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation" - yangilik kiritish, ixtiro) - ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi.


Ta'lim innovatsiyalari - ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondoshuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar[3.B.11].

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li - bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Xo'sh, interfaol metodlarning o'zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta'lim jarayonida interfaol metodlarning o'rinli, maqsadga

muvofiq qo'llanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi? Quyidagi ana shu kabi savollarga qisqacha javob topiladi.

Mohiyatiga ko'ra interfaollik talabalarining bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi. Mantiqiy nuqtai nazardan esa interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.


Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi (1-rasm):



1-rasm. An'anaviy ta'limga asoslangan suhbat

Interfaol ta'lim o'qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari - o'qituvchi, talaba va talabalar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda echimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda talabalarining o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi - talaba - talabalar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

Interfaol ta'limda suhbat quyidagi shaxslar o'rtasida tashkil etiladi (17-rasm):



2-rasm. Interfaol ta'limda tashkil etiladigan suhbat (dialog)

Interfaol TT mohiyatiga ko'ra suhbatning "talaba - axborot kommunikatsion texnologiyalar" shaklida tashkil etilishi talabalar tomonidan mustaqil ravishda yoki

o'qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishini anglatadi.

O'qituvchi interfaol ta'lim yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol TTni qo'llash orqali o'qituvchi talabalarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi[3.B.56-57].

So'nggi bir asr davomida bosqichma-bosqich, biroq, izchil rivojlanib kelayotgan ta'lim texnologiyalari bevosita ishlab chiqarish jarayonini qo'llab-quvvatlash, uni ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, yuqori intellektga ega, ruhiy jihatdan barqaror, raqobatga bardoshli mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadlariga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora -tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni, 13.03.2020 yildagi PF-5963-son

2. O'zbekiston Respublikasining - Ta'lim to'g'risidagi qonuni // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997.

3. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To'rayev "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" - T., 2015.

4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va b. - T.: "O'zbekistan milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. - 169-bet.

5. Hakimjon og, I. M. A. (2023). BO 'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O 'QITUVCHILARIGA "MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI" FANINI O 'QITISH JARAYONIDA ULARNING BADIY-IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. *Conferencea*, 34-38.

6. Hakimjon o'g, I. M. A. (2023). TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI YO 'NALISHI TALABALARINI BADIY IJODIY QOBILİYATLARINI RIVIJLANTIRISHDA KOMPYUTER GRAFIKASINI O 'RNI. *Conferencea*, 130-138.

7. Hakimjon og, I. M. A. (2023). TA'LIMNI KOMPYUTERLASHTIRISH VA O'QITISHNING O'ZIGA XOS USULLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI. *Conferencea*, 7-11.

8. Hakimjon og, I. M. A. (2023). SAN'AT PEDAGOGIKASI SOHASIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI BADIY TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI. *Conferencea*, 1-5.

9. Hakimjon og, I. M. A. (2023). TASVIRIY SAN'AT FANI O 'QITUVCHILARI BADIY-IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPYUTER GRAFIKASINING AHAMYATI. *Conferencea*, 5-11.
10. Гулямов, К. М. (2022). БЎЛАЖАК ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ КОМПЬЮТЕРДА ГРАФИК МОДЕЛЛАШТИРИШ АСОСИДА КАСБИЙ ТАЙЁРЛАШ МОДЕЛИ. *УЧИТЕЛЬ*, 3(4).
11. Ikromov, M. X., & Abdullaev, A. X. (2022). METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF ARTISTIC AND CREATIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS IN THE PROCESS OF TEACHING COMPUTER GRAPHICS. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
12. Gulyamov, K. M., & Ikramov, M. H. (2021). Development of artistic and creative abilities of future teachers of fine arts through computer graphics. *JournalNX*, 7(06), 95-99.
13. Ikromov, M. X. O., & Qizi, Z. M. (2022). MARKAZIY OSIYODA GRAFIKANING RIVOJLANISHIGA HISSA QO'SHGAN BUYUK OLIMLAR. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 627-630.
14. Makhmudovich, G. K., & Hakimjon o'g, I. M. A. (2022). DEVELOPMENT OF CHILDREN'S ARTISTIC AND CREATIVE ABILITIES IN THE PROCESS OF TEACHING UZBEK FOLK APPLIED DECORATIVE ARTS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 957-963.
15. MUBINAKHON, I., & ANASKHON, I. M. The Importance of Using the Ict to Increase the Efficiency of Education. *JournalNX*, 7(1), 106-108.
16. Хонбобоев, Х. О., Икромова, М. Х., & Икромов, М. А. Х. (2016). Та'limda axborot texnologiyalarni qollashning oziga xos xususiyatlari. *Молодой ученый*, (3-1), 21-22.